

PAPER

1945–1953 YILLARDA MADANIY VA TALIM SOHASIDAGI O'ZGARISHLARNI IJTIMOY SOHAGA TA'SIRI

Egamova Mahliyo^{1,*}

¹Bo'stonliq tumani 2-son Kasb hunar maktabining «Tarix fani» o'qituvchisi

*egamova@gmail.com

Abstract

Ushbu Maqolada, 1945–1953 yillar O'zbekiston madaniyati va ta'lim sohasida ro'y bergan muhim o'zgarishlar va yangiliklarni kengroq yoritib berishga xarakat qilingan.. Ushbu davrda teatr, adabiyot, musiqa va san'at sohalarida ko'plab asarlar sahnalashtirildi va madaniyat tadbirlari o'tkazilishi O'zbekistonda milliy g'urur, o'zlikni anglash va madaniy merosni saqlab qolishga xizmat qilganini yoritib bergan. Ta'lim sohasida esa o'zbek tilining rivojlanishi va ta'lim sifatining oshishi uchun muhim qadamlar ijtimoiy hayotga nechog'liq ta'sir o'tqazganini mavjud manbalar asosida yoritishga xarakat qilingan.

Key words: Milliy g'urur; deologik nazorat; repressiya; o'rta ta'lim; iqtisodiyot fakulteti.

Kirish

1945–1953 yillar O'zbekiston madaniyati va ta'lim sohasida muhim o'zgarishlar va yangiliklar bilan to'la davr bo'ldi. Ushbu davrda O'zbekiston, Sovet Ittifoqining bir qismi sifatida, madaniyat va ta'lim sohasida bir qator ijtimoiy o'zgarishlarga guvoh bo'ldi. Teatrlar, kinoteatrlar va madaniyat markazlari faoliyatini kengaytirish maqsadida yangi asarlar sahnalashtirildi va madaniy tadbirlar o'tkazildi.

Ushbu qarorlar va dasturlar O'zbekistonda ta'lim va ma'naviyat tizimini rivojlantirishga, aholi orasida ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga va madaniy hayotni boyitishga xizmat qildi. Biroq, bu jarayonda ideologik nazorat va repressiya ham mavjud bo'lib, bu ta'lim va madaniyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ta'lim tizimini kengaytirish maqsadida Respublikada 1946 yilda O'zbekistonda o'rta ta'lim muassasalarini ko'paytirish va ularning sifatini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilindi. Bu davrda yangi maktablar sonini oshirish va mavjud 581 maktablar modernizatsiya qilinib ularning sonini 1000 taga yetkazish rejalashtirilgan edi. 1946–1950 yillar davomida 150 dan ortiq yangi o'rta maktablar ochildi, bu esa umumiy ta'lim oluvchi bolalar sonining ortishiga xizmat qildi, mamlakatda ziyolilar sonini ortishiga katta xizmat qildi. Maktab ta'limini yaxshilash maqsadida 19438336 yilning dekabrda o'qituvchilarni malakasini oshirish bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Yil davomida o'qituvchilarning 30% ga yaqinini qayta tayyorlash kurslarida o'qitishga jalb qilingan.

Bundan tashqari pedagog kadrlarning malakaini oshirish maqsadida Toshkent, Buxoro, Samarqanda O'qituvchilarni tayyorlash maqsadida 1946 yilda Toshkent pedagogika institutida yangi fakultetlar ochish va ularning sonini 5 taga yetkazish rejalashtirilgan. Bu orqali har yili 2000 dan ortiq o'qituvchilar tayyorlashga va u yerda yangi a'lim dasturlarida mulkchilik tizimlarining ijtimoiy va iqtisodiy masalalariga oid mavzularni kiritish, shuningdek, o'zbek adabiyoti va tarixiga alohida e'tibor berish bo'yicha o'quv dasturlarini sifatiga yangilanishlar kiritilgan. 1946–1953 yillarda o'rta ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun O'zbekistonning davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar yiliga o'rtacha 1 million rubldan yuqori miqdorda belgilangan. [1]

O'zbekistonning ta'lim tizimini sifat jihatidan oshirishni maqsad qilib qo'ygan qarorlar va dasturlar asosida amalga oshirildi. Bu jarayonda aholini ta'lim olish imkoniyatlari yanada kengayib, o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirishga yordam bergan. Bundan tashqari yangi fakultetlar xususan: Toshkent davlat pedagogika institutida O'qituvchilarni tayyorlash va pedagogik tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan, Toshkent davlat iqtisodiyot institutida Iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish va iqtisodiy mutaxassislarni tayyorlash uchun Iqtisodiyot fakulteti, Toshkent davlat tibbiyot institutida tibbiy bilimlarni oshirish va tibbiyot mutaxassislarni tayyorlash maqsadida tibbiyot fakulteti ochildi bo'lib bu fakultetlar O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini kengaytirish va sifatini oshirishga xizmat qildi. [2] Yangi fakultetlar ochildishi, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlan-

ishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 1945 yildan keyin O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining soni va ularning faoliyati kengayib, yangi mutaxassislar tayyorlashga imkon yaratdi. [3]

Shu bilan birgalikda 1947 yilda O'zbekistonda ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar doirasida bir qator madaniyat markazlari ochildi va u yerda turli tadbirlar o'tkazildi. Ushbu tadbirlar va markazlar quyidagi yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatdi: O'zbek davlat akademik teatrida (1939 yil) eartda o'zbek klassik adabiyotidan, masalan, Abdulla Qodiriy ("O'tkan kunlar»)va Hamza Hakimzodaning («Hamza»),

"Alisher Navoiy" – Navoiy hayoti va ijodiasarlaridan sahnalashtirilgan spektakllar namoyish etildi. Shuningdek, zamonaviy dramalar va xalq ertaklari asosida spektakllar sahnalashtirildi.

Teatrdan o'zbek tilida sahnalashtirilgan asarlar orqali milliy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazilib milliy g'urur va ongni uyg'otishda xizmat qilgan. Ushbu asarlar o'zbek xalqining tarixiy shaxslarini va madaniyatini yoritib, milliy g'urur va o'zlikni oshirishga xizmat qildi. Teatr orqali xalqning tarixiy va madaniy merosi haqida ma'lumot berildi, bu esa ijtimoiy ongni rivojlantirishga yordam berdi. Bundan tashqari, O'zbek davlat filarmoniyasi (1947 yil) yilda O'zbek davlat filarmoniyasi faoliyatini kengaytirdi. Filarmoniyada o'zbek musiqasi va xalq qo'shiqlari konsertlari, klassik va zamonaviy musiqiy asarlar ijro etildi. O'zbek xalq musiqasi va raqs san'atini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlar o'tkazildi.

Toshkent shahridagi Markaziy kutubxona (1947 yil) kutubxona fondi kengaytirildi va yangi kitoblardan to'ldirildi. Kutubxonada adabiy kechalar, kitob taqdimotlari va o'qish tadbirlari o'tkazildi. O'zbek adabiyoti va tarixiga oid kitoblardan taqdim etildi. [4]

Ushbu madaniyat markazlari va tadbirlar O'zbekistonda ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirishga, aholi orasida madaniy hayotni boyitishga va milliy an'analarni saqlab qolishga xizmat qildi. 1947- yildan boshlab, bu jarayonlar O'zbekistonning madaniy hayotida muhim o'rin egalladi.

Shu bilan birgalikda, Sovet davrida O'zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va buyruqlar O'zbekistonning madaniy va ta'lim sohasida muhim o'zgarishlarga olib keldi. Ushbu chora-tadbirlar o'zbek tilining rasmiy maqomini mustahkamlash, ta'lim tizimida o'zbek tilini kengaytirish va madaniyatda o'zbek tilining o'rnini oshirishga xizmat qildi. O'zbek tilining rasmiy maqomini mustahkamlashga qaratilgan qarorlar qabul qilindi. O'zbek tilida davlat idoralarida va jamoat hayotida faoliyat yuritish uchun shart-sharoitlar yaratildi. O'zbek tilining rasmiy maqomini mustahkamlashga qaratilgan qarorlar qabul qilindi. O'zbek tilida davlat idoralarida va jamoat hayotida faoliyat yuritish uchun shartsharoitlar yaratildi. O'zbek tilida dars berishni amalga oshirish maqsadida 1940-yillarning oxirlarida va 1950-yillarning boshlarida O'zbek tilida ta'lim berishning kengaytirilishi uchun maxsus buyruqlar qabul qilindi. O'zbek tilida o'qitish uchun yangi darsliklar va o'quv materiallari tayyorlandi va o'zbek tilida dars beradigan maxsus kadrlar tayyorlana boshladi. O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Bu kurslar o'qituvchilarga yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitish metodlari va zamonaviy ta'lim usullarini o'rganishga imkon berdi. [5]

1947 yildan boshlab, har yili o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari o'tkazildi, bu esa ularning bilim va ko'nikmalarini yangilashga yordam berdi.

O'qituvchilarni tayyorlashda yangi pedagogik metodologiyalar va usullar joriy etildi. Bu metodologiyalar o'qituvchilarga o'qituvchilarning qiziqishlarini oshirish va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam berdi. O'qituvchilarga zamonaviy darsliklar va o'quv materiallari bilan tanishtirildi.

O'qituvchilarni esa, ilmiy tadqiqotlar olib borishga jalb qilish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqildi. Bu dasturlar o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga va ta'lim tizimida ilmiy yondashuvni rivojlantirishga qaratilgan edi. O'qituvchilar o'z sohalarida ilmiy maqolalar yozish va ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Xullas, O'zbek tilida ta'lim berish uchun o'qituvchilarni tayyorlashga alohida e'tibor berildi. O'zbek tilida dars beradigan o'qituvchilarni tayyorlash uchun maxsus kurslar va dasturlar ishlab chiqildi.

O'zbek tilida dars berish uchun yangi darsliklar va o'quv materiallari tayyorlandi.

Ushbu dasturlar va tashabbuslar O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirishga, o'qituvchilarning malakasini oshirishga va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qildi. 1945-1953 yillar davomida amalga oshirilgan bu o'zgarishlar O'zbekistonning ta'lim tizimida muhim rol o'ynadi.

Lekin, bu amalga oshirilgan ijobiy o'zgarishlarning ham oziga xos salbiy tomonlari bo'lgan. Ushbu maqolada bu xaqida yoritmasak bo'lmaydi. O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Bu kurslar o'qituvchilarga yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitish metodlari va zamonaviy ta'lim usullarini o'rganishga imkon berdi.

Ushbu dasturlar va tashabbuslar O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirishga, o'qituvchilarning malakasini oshirishga va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qilgan bo'lsada ushbu davrda O'zbek ziyolilarining ko'pchiligi taqibga uchrab qatag'on qilindi. O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Bu kurslar o'qituvchilarga yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitish metodlari va zamonaviy ta'lim usullarini o'rganishga imkon berdi.

1947 yildan boshlab, har yili o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari o'tkazildi, bu esa ularning bilim va ko'nikmalarini yangilashga yordam berdi.

Xulosa

Xulosa qilib ytganda, 1945-1953 yillar O'zbekistonda madaniyat va ta'lim sohasida muhim o'zgarishlar va yangiliklar bilan to'ldi. Ushbu davrda teatr, adabiyot, musiqa va san'at sohalarida ko'plab asarlar sahnalashtirildi va madaniyat tadbirlari o'tkazildi. Ta'lim sohasida esa o'zbek tilining rivojlanishi va ta'lim sifatining oshishi uchun muhim qadamlar qo'yildi. Bu jarayonlar O'zbekistonning madaniy hayotida muhim rol o'ynadi va xalqning tarixiy va madaniy merosini saqlab qolishga xizmat qildi. O'zbek xalqining milliy g'ururi va o'zligini anglash jarayonida bu o'zgarishlar ijtimoiy ongni rivojlantirishga yordam berdi.

Adabiyotlar

1. Zelenin I. E. Sovxoz SSSR. 1941-1950. 17 s.
2. Mullajanov I.R. Narodonaselenie Uzbekskoy SSR (sotsialno-ekonomicheskij ocherk). – Tashkent. 76 s.
3. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Kitob 2. 1939-1991 yillar. 5 s.
4. M. Rahimov, Q. Rajabov. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. 154 s.